

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UO‘K 330.3/658 (575.1)

XASANOVA SHAXNOZA OLIMXON QIZI

MOLIYA-SANOAT GURUHLARINI TASHKIL ETISHDA
BANKLAR INVESTITSION FAOLLIGINI USTUVOR
YO‘NALISHLARI

5A230603 – Investitsiyalarni boshqarish mutaxassisligida
Magistr akademik darajasini olish uchun tayyorlangan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: I.f.n., dots. O.S.Kamolov

Toshkent – 2019

Magistrlik dissertatsiyasida moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishning xorij tajribasi xususan, Janubiy Koreya tajribasi o'rganilgan. O'zbekistonda moliya-sanoat guruhlarini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Theoretical and practical aspects of establishing financial-industrial groups are studied on the master thesis. Also, foreign experience of establishment of financial-industrial groups are researched such as Korean experience. Recommendations and offers are made up how to establish and develop financial-industrial groups in Uzbekistan.


Magistrlik dissertatsiyasi «Bank ishi» kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.
17 -sonli bayonnoma «27» may 2019 yil.

Ilmiy rahbar: I.f.n., dots. O.S.Kamolov


imzo

_____ sana


Magistr: Sh.O.Xasanova


imzo

_____ sana

«Himoyaga tavsiya etiladi»

«Bank ishi» kafedrası mudiri,
PhD. U.Sh.Duskobilov


«31» may 2019 y.

Magistrlik dissertatsiyasi himoyasi 2019 yil «09» 07 soat 14⁰⁰ da
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tadi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. MOLIYA-SANOAT GURUHLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	9
1.1. Moliya-sanoat guruhlari tushunchasi va ularni tashkil etish borasidagi nazariy yondashuvlar.....	9
1.2. Moliya-sanoat guruhlarini shakllantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari..	16
Birinch bob bo'yicha xulosalar	22
II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYA-SANOAT GURUHLARINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI HOLATI.....	25
2.1. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda moliya-sanoat guruhlarining roli va ahamiyati	25
2.2. O'zbekistonda moliya-sanoat guruhlarini shakllantirishning iqtisodiy-moliyaviy shart-sharoitlari	34
2.3. O'zbekistonda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning joriy holati tahlili	43
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	50
III BOB. O'ZBEKISTONDA MOLIYA-SANOAT GURUHLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	52
3.1. Respublikamizda moliya-sanoat guruhlarini rivojlantirishda Janubiy Koreya modelidan foydalanish imkoniyatlari.....	52
3.2. O'zbekistonda koreys modelidan foydalangan holda Koreya kapitali ishtirokida moliya sanoat guruhlarini tashkil etish istiqbollari.....	60
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar	65
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	67
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	71
ILOVALAR.....	77

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Jahon amaliyotida milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va barqarorligini ta'minlash maqsadida integratsiyalashgan korporativ tuzilmalarning bir turi bo'lgan moliya-sanoat guruhlarining tashkil etilishi muhim o'rin tutmoqda. Zamonaviy moliya-sanoat tuzilmalari, shubhasiz, mamlakatda va jahonda yirik iqtisodiy hamda moliyaviy institutlarga aylanishi mumkin. Ularning milliy va jahon iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissassi yangi iqtisodiy hududning tashkil topishida, sanoat ishlab chiqarishi va moliya bozorlari rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Yevropa komissiyasi va United Nations Conference on Trade and Development (BMTning savdo va taraqqiyot konferensiyasi) ma'lumotlariga ko'ra xalqaro savdoning qariyb yarmi yirik integratsiyalashgan tuzilmalar hissasiga to'g'ri keladi. Yirik moliya-sanoat guruhlarining yillik aylanmasi dunyoning ko'plab mamlakatlari yalpi ichki mahsuloti hajmidan oshib ketadi. Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi sanoat ishlab chiqarishining va ish bilan band bo'lgan aholining asosiy qismi aynan mazkur tuzilmalar hissasiga to'g'ri keladi¹.

Jahon amaliyotida banklar mablag'larining katta qismi yuqori texnologiyali va ilmiy sig'imli ishlab chiqarishlarni tashkil etish, eksportga mo'ljallangan sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi, bu esa, o'z navbatida sanoat tarmoqlarida yangi loyihalarni amalga oshirishga hamda iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uzluksizligini ta'minlash, barqaror iqtisodiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy institutlar hamda ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida mustahkam aloqalarning o'rnatilishi natijasida yuzaga keluvchi mukammal integratsiyalashgan tizimlarni shakllantirish maqsadga muvofiq. Chunki, jahon iqtisodiyoti globallasuvi sharoitida milliy iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan sub'ektlarning yuqori darajadagi raqobatbardoshligini ta'minlash lozim. Buning uchun moliya va sanoat kapitali integratsiyasini kuchaytirish, yuqori integratsiyalashgan

¹ European Commission. (2016). Innovation Policy. Retrieved from: <http://ec.europa.eu>.; <http://unctad.org>.